

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 28-noyabr № 14 (1560)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

TARAQQIYOT TAYANCHI

Globallashuv va raqobat muhiti korxonalarni doimiy izlanishga, yangicha fikrlashga chorlamoqda.

2 ➔

BIRGALIKDA YENGAMIZ!

"O'zmetkombinat" AJda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda.

3 ➔

ONGNI KITOB YORITADI

Temirni ishlovsiz qoldirsang zang bosadi, ongni kitobsiz, gazeta, jurnalsiz qoldirsang fikr so'nadi.

4 ➔

DAVLAT ULUSHI YUQORI KORXONALARDA TANNARXNI KAMAYTIRISH BO'YICHA ISLOHOTLAR BOSHLANDI

Global raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda barqarorlik va samaradorlikni ta'minlash, davlat sektorida xarajatlarni keskin kamaytirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, davlat korxonalarida tejamkor boshqaruv, raqamli iqtisodiyot va xalqaro korporativ standartlarga asoslangan ish uslubini joriy etish maqsadida Prezident farmoyishi qabul qilindi.

Joriy yil 18-noyabrda imzolangan "Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentning F-59-son farmoyishi qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad 2026-yilda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarda mahsulot tannarxini kamaytirish va faoliyati samaradorligini oshirish etib belgilandi.

Bu yo'nalishlarni muvofiqlashtirish uchun Respublika komissiyasi tashkil etiladi.

Farmoyishga ko'ra, davlat korxonalarida mahsu-

SAMARADORLIK OSHIRILADI

lot tannarxini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi, jumladan:

- xarajatlarni har chorakda qayta tahlil qilish (spending review) orqali kelgusi davrdagi har bir yo'nalish ustuvorligidan kelib chiqib, byudjetni to'liq "noldan" qayta ko'rib chiqish (zero-based budgeting) amaliyotini yo'lga qo'yish;

- yordamchi funktsiya va xizmatlarni outsorsingga topshirish, asosiy bo'lmagan ishlarga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etib, ortiqcha boshqaruv xarajatlarini qisqartirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish va boshqaruv operatsiyalarini avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish, sun'iy

intellekt texnologiyalarini joriy etish;

- energiya samaradorligi – energiya auditi o'tkazish orqali energiya iste'molini tahlil qilish, tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish;

- tashkiliy tuzilma va kadrlar sonini maqbul lashtirish – korxonalarning tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, takrorlanuvchi va samarasiz lavozimlarni qisqartirish hamda mehnat unumdorligini oshirish.

Bu farmoyish bilan davlat rahbarining qarorlari va topshiriqlaridan tashqari boshqa hollarda homiylik yordamlarini ko'rsatishni to'xtatish buyurildi.

(Davomi 2-sahifada).

"O'zmetkombinat"ning 500 nafar xodimi xorijiy oliy ta'lim muassasasida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldi. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati va Rossiyaning Perm milliy tadqiqot politexnika universiteti o'rtasida hamkorlikka oid Memorandum imzolandi.



KOMBINATDA KO'KALAMZOR HUDUDLAR KENGAYMOQDA

Yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi uchun sog'lom va qulay muhit yaratish maqsadida so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Yashil makon" umummilliy dasturi esa mamlakatimiz bo'ylab millionlab ko'chatlar ekilishiga turtki bo'lib, har bir hududda yashil maydonlar soni oshib bormoqda.

Mazkur sa'y-harakatlardan "O'zmetkombinat" AJ ham chetda qolmaypti. Korxonada kuzgi mavsumda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Joriy yilda kombinat hududida 16 ming donadan ortiq turli xil manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Bu ko'chatlar nafaqat hududning ko'rinishiga chiroy bag'ishlaydi, balki kelgusida soya-salqin, toza havo va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

"O'zmetkombinat" AJda amalga oshirilayotgan ushbu loyiha korxona jamoasining ekologik islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mas'uliyatli yondashuvidan dalolat beradi.

Artur KULIYEV.



MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA MUHIM QADAM

MEMORANDUM IMZOLANDI

Hamkorlikning asosiy maqsadi ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida mustahkam, tizimli va uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirishdan iborat. Shu doirada 500 ta maxsus grant ajratilishi belgilangan bo'lib, ular orqali korxona ishchi-xodimlari masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib bu universitetda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Dastur bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarini qamrab oladi. Ushbu hamkorlik metallurgiya sohasida zamonaviy bilim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirishga

qaratilgan. Shuningdek, namunali va a'lo baholarga erishgan talabalar universitet tomonidan stipendiya bilan rag'batlantiriladi.

Bekobodlik metallurglar va Perm milliy tadqiqot politexnika universiteti hamkorligi nafaqat korxona xodimlari uchun zamonaviy ta'lim imkoniyatini yaratadi, balki metallurgiya sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur yuqori malakali kadrlar tayyorlash va uzoq muddatli bilim almashinuvi yo'lida muhim qadam sifatida baholalanadi.

Umid TOSHMATOV.

Bugungi kunda dunyoda yangilanish va rivojlanish jarayonlari tobora jadal tus olmoqda. Bu taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish hamda samarali boshqaruv tizimlarini joriy etishdan iborat.


INNOVATSIYA – TARAQQIYOTNING ASOSIY TAYANCHI

Globalashuv va raqobat muhiti korxonalarini doimiy izlanishga, yangi fikrlashga chorlamoqda. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va islohotlarning hayotga tatbiq etilishi iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini belgilab bermoqda.

Metallurgiya sohasi bu jarayonda yetakchi bo'lishi uchun, eng avvalo, innovatsiya va malakali kadrlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Ma'lumki, jahon bozorida 1 tonna qora metall 600 dollar atrofida baholansa, yuqori qiymatli po'lat qotishmalari narxi 10 ming dollardan oshib ketadi. Demak, yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish soha raqobatbardoshligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Innovatsiya jarayoni faqat olimlar va muhandislar faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda moliyalashtirish, tashkilotchilik va tayyor mahsulotni bozorga chiqarish kabi vazifalarni amalga oshiradigan innovatsion menejerlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boisdan, chet el tajribasini o'rganish, xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va yosh kadrlarni stajirovkaga yuborish bugungi kun talabidir.

Agar biz ushbu vazifalarni izchil amalga oshirsak, O'zbekiston metallurgiya



sanoati nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham munosib o'rin egallashi, raqobatbardoshligini mustahkamlashi shubhasiz.

O'zbekiston metallurgiya kombinati xodimlari va mutaxassislari uchun bugungi kunning asosiy vazifasi – innovatsion fikrlashni kundalik mehnat jarayonining ajralmas qismiga aylantirishdir. Kombinatning har bir mutaxassisi o'z faoliyatida sifat, tejamkorlik va samaradorlik tamoyillariga amal qilishi, yangilikka intiluvchan bo'lishi lozim.

Ana shunda kombinat mintaqamizda ilg'or sanoat markazlaridan biriga aylanishiga ishonch komil.

Diyor ZULFIQOROV.

O'zLiDeP o'z taraqqiyot yo'lidan izchil ildamlab, yuksalish palasiga kirdi, salmoqli siyosiy tajribaga ega bo'ldi. Partiya hozirda o'z rivojining yangi sifat bosqichida turibdi. Bu, avvalo, partiya safining kengayishi va tashkiliy jihatdan mustahkamlanishida ham yaqqol namoyon bo'lyapti.

VATAN TARAQQIYOTI UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!

O'ZLIDEP BILAN "O'ZMETKOMBINAT"DA BUNYODKORIK YO'LIDA BIRLASHAYLIK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Inson qadri haqidagi ezgu tushunchalar yurtidoshlarimizni to'liqlantirib yubordi. Odamlar shu yurtda qadrlilik ekanliklarini, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar avvalambor, ular uchun, ularning farzandlari uchun munosib turmush sharoitlari yaratib berish, orzu istaklarini amalga oshirishga qaratilganiga ishonishdi.

Bugungi kunda Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasining boshlang'ich tashkiloti "O'zmetkombinat" AJda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Kombinatimizda 400 nafarga yaqin partiya a'zolari bor.

Shu paytgacha boshlang'ich partiya tashkiloti tomonidan ko'plab uchrashuv va seminarlar, turli tadbirlar o'tkazilib kelindi. Kombinatda O'zLiDeP boshlang'ich partiya tashkiloti Kengash a'zolari, "Yoshlar qanoti", "Ayollar qanoti" o'z faoliyatini

olib bormoqda. Kombinatimizda "Deputat va yoshlar", "Sog'lom turmush tarzi", "Parlamentda mening o'rnim", Konstitutsiya bosh qomusimiz" kabi ko'plab tadbirlar tashkil etildi.

Ayni paytda "O'zbekiston 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni hayotga tatbiq etishga kirishdik. Mamlakatimizdagi yetakchi kuch sifatida bu maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash O'zLiDePga alohida mas'uliyat yuklaydi, deb o'ylayman. Yanada kengroq xalq orasiga kirib borishimiz, yurtimizda kechayotgan har bir voqea-hodisaga, jarayonlarga o'zimizni daxldor ekanimizni his qilib yashashimiz lozim. Shundagina xalq e'tirofiga, rahmatiga sazovor bo'lamiz. Maslakdoshlarimiz bu mas'uliyat yukini his qilgan holda, zimmalaridagi vazifani sharaf bilan uddalashiga ishonaman.

Davlat XOLMURODOV,
"O'zmetkombinat" AJ O'zLiDeP
boshlang'ich partiya
tashkiloti raisi.

SAMARADORLIK OSHIRILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Davlat korxonalarida outsorsing asosida bajarilishi lozim bo'lgan funktsiya va xizmatlar ro'yxati.

1. Bino va hududlarni tozalash (klining) xizmati.
2. Qorovullik va ob'yektlarni muhofaza qilish xizmati.
3. Ishchilar ovqatlanishini tashkil etish (keytering) xizmati.
4. Xodimlarni xizmat avtotransporti bilan ta'minlash xizmati (haydovchi bilan birga).
5. Bino va inshootlarni texnik qo'llab-quvvatlash (santexnika, elektr ta'minoti va boshqa muhandislik xizmatlari).
6. Ishlab chiqarish uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish.
7. Axborot texnologiyalari infrastrukturasiga xizmat ko'rsatish (IT-outsorsing).
8. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va texnik qo'llab-quvvatlash xizmati.
9. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni yuritish xizmati.
10. Yuridik maslahat va huquqiy hamrohlik xizmati.
11. Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish (rekruting) xizmati.
12. Ish haqini hisoblash va kadrlar bo'yicha hujjat yuritish xizmati.
13. Marketing, reklama va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati.
14. Mijozlar uchun koll-markaz va axborot xizmati.
15. Pochta-kurerlik va hujjat yetkazib berish xizmati.
16. Poligrafiya va bosmaxona xizmati (matbaachilik va nusxa ko'paytirish ishlari).
17. Konferensiya, seminar va boshqa tadbirlarni tashkil etish xizmati.
18. Avtoparkni boshqarish va avtotransportlarga servis xizmati.
19. Laboratoriya sinovlari va sertifikatlash xizmatlari.
20. Ichki audit va konsalting xizmati.

OGOHLIK – XAVFSIZLIK KAFOLATI

EHTIYOT BO'LING – IS GAZI!

Sovuq kunlar boshlanishi bilan uy-joylarda isitish moslamalaridan foydalanish ortishi natijasida is gazi (ugar gazi) bilan bog'liq hodisalar xavfi kuchayadi.

nosoz holatdagi dudburonlardan foydalanish hamda xonadon ichida ochiq olovdan isitish maqsadida foydalanish holatlarining uchrab turishi fuqarolarning is gazidan



Is gazi ko'rinmaydi, hidi yo'q, ammo o'ta xavfli. U yonishi to'liq bo'lmagan yoqilg'i natijasida hosil bo'ladigan, tanaga ta'siri juda xavfli moddadir. U havoga aralashib, inson tanasiga nafas orqali kirib, qonga singadi va organlarning kislorod bilan ta'minlanishini to'xtatadi.

Gaz oqimining to'satdan uzilishi va qayta ulanishi natijasida xona ichida gaz to'planishi, yonib turgan gaz anjomlarini qarovsiz qoldirish, isitish asbob-anjomlariga gazni ulashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, gaz quvurlariga o'zboshimchalik bilan ulanish oqibatida havo-gaz aralashmasi portlashi hamda yong'in sodir bo'lishi mumkin. Shuningdek, aholi tomonidan xavfsizlik talablariga javob bermaydigan qo'lbola, nostandart gaz jihozlaridan foydalanish, gaz tarmoqlariga rezina shlang orqali ulanish,

zaharlanishiga hamda havo-gaz aralashmasini chaqnashi natijasida jabrlanishi, hattoki halok bo'lishiga olib kelmoqda.

Agar xonada gaz sezilsa chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan aslo foydalanmay, darhol xonani shamollatish chorasini ko'rish kerak.

Is gazidan zaharlanishning dastlabki belgilarida bosh og'riydi, bosh aylanadi, ko'ngil ayniydi, ko'z oldi qorayib, uyquchanlik va xolsizlik kuzatiladi.

Bu holatlarga e'tiborsizlik inson hayoti uchun juda katta tahdid tug'diradi.

Is gazidan zaharlanishdan ogoh bo'ling.

Javlon UMIRZOQOV,
"O'zmetkombinat" AJ
ob'yektlarida YOXTTEB
inspektori, serjant.

Bugungi kunda aholi orasida zamonaviy dizaynga ega, sifatli emallangan idishlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu ehtiyojni qondirish maqsadida Bekobod Emal MCHJda fidokorona mehnat qilayotgan mutaxassislar o'z tajriba va mahoratini ishga solgan holda turli shakl va ko'rinishdagi zamonaviy idishlarni tayyorlab, xaridorlarga taqdim etmoqdalar.

Ishlab chiqarilayotgan idishlar nafaqat sifati, balki bejirim dizayni va chiroyli bezaklari bilan ham xaridorlarning qalbini zabt etmoqda. Uy bekallari uchun qulay va zamonaviy bo'lgan bu mahsulotlar bozorlarda ham katta talabga ega bo'lmoqda.

Sentabr oyida mazkur jamoa tomonidan 11 milliard 404 million 890 ming so'mlik amaldagi narxlardagi tovar mahsulotlari ishlab chiqarildi. Belgilangan reja 100,6 foizga bajarilgan edi.

ZAMONAVIY VA SIFATLI IDISHLAR

O'tgan oyda jamoada ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yanada yuksaldi. Oktabrda 11 milliard 709 million so'mlik amaldagi narxlardagi sirlangan idishlar tayyorlanib, reja 101, 4 foizga bajarildi.

Buyurtmachilar ehtiyojini qondirish sirlangan idishlar ishlab chiqaruvchilarning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bois ular mahsulot dizayni va sifatiga doimiy ravishda e'tibor qaratib, yangi g'oya va texnologiyalar-

ni joriy etmoqdalar. Natijada, tayyorlanayotgan sirlangan idishlar nafaqat ichki bozorda, balki xorijiy bozorlarda ham o'z o'rnini topmoqda.

Ismat DIYOROV.



HALOL MEHNAT – TARAQQIYOT POYDEVORI



rida kombinatning bir qator bo'linmalarida huquqiy tadbirlar o'tkazildi. Xususan, Zoldir prokat, Quyuv-mexanika, Metall konstruksiyalar, Energetika, Elektr uskunalarini ta'mirlash, Issiqlik o'tkazmas materiallar ishlab chiqarish bo'linmalari, Elektrotexnika laboratoriyasi, G'aznachilik bo'limi, Kapital qurilish va qurilish-montaj ishlari boshqarmasi xodimlari va boshqa tarkibiy tuzilmalarda davra suhbatlari tashkil etildi.

Kombinatning Komplains xizmati menejeri G. Nurmatov davra suhbatlarida ishchi-xodimlarni korrupsiyaviy holatlarning ehtimoliy ko'rinishlariga nisbatan yanada ziyrak bo'lishga, har qanday manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni vaqtida aniqlash va bartaraf etishga chaqirdi.

G'anjion SHERBOYEV.

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va shaffoflikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda korxonalarda ham xodimlar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, mas'uliyatni kuchaytirish va halol mehnat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning oktabr-noyabr oyla-

KORRUPSIYANI BIRGALIKDA YENGAMIZ!

26 – 28-noyabr kunlari, kombinat tarkibiy va hududiy bo'linmalari, tizim tashkilotlarining korrupsiyaga moyilligi yuqoqri bo'lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlari uchun maxsus o'quv kursi tashkil etildi.

“O'zmetkombinat” AJ Xodimlar malakasini rivojlantirish markazida kombinat Komplains xizmati bilan hamkorlikda keng qamrovli maxsus o'quv-seminarlari tashkil etildi.

Seminar an'anaviy formatida, ma'ruza, muhokama, interfaol suhbat, trening va muzokaralar shaklida tashkil etildi.

Ma'ruzachi va mavzular:

“O'zmetkombinat” AJ Komplains xizmati xodimi G. Nurmatov kombinatning “Sovg'alar taqdim etish va olish, biznes tadbirlarda ishtirok etish” talablari bajarilishi to'g'risida maxsus o'quv kursini tashkil etish to'g'risidagi buyruqlari, shuningdek, o'quv kursining

samaradorligini belgilangan yo'nalishlar va indikatorlar asosida reyting baholash haqida maxsus o'quv kursi qatnashchilariga ma'lumot berdi.

Shu tariqa, maxsus o'quv kursi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi eng dolzarb masalalar, xususan, amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirish yo'llari, samaradorlikni baholash uslublari muhokama qilindi.

Shunindek, maxsus o'quv kursi tinglovchilariga manfaatlar to'qnashuvining ijtimoiy xavfliligi, uning ayrim ko'rinishlari asosida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, davlat, jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda yoxud jiddiy miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishligi to'g'risida to'liq malumot berildi.

Karim SOLIYEV.

SHIFOKOR MASLAHATLARI

BOTULIZMDAN SAQLANING!

Qadrli metallurglar!

Shu kunlarda – ovqatdan zaharlanishdek xavfli kasallik – Botulizm holatlari ko'paydigan payt. Uning qo'zg'atuvchisi oziq-ovqatga tushib, kislorodsiz muhitda ko'payadi va juda kuchli zahar – botulinotoksinni ajratadi. Shu modda bilan zararlangan mahsulot iste'mol qilinganda kasallik rivojlanadi.

Botulizm mikroblari asosan uy sharoitida tayyorlangan, sifatsiz konserva mahsulotlarida, ayniqsa, sabzavot, qo'ziqorin, go'sht va baliq mahsulotlarida ko'payadi. Ular go'sht so'yish yoki baliq tozalash jarayonida mahsulotga tushishi mumkin.

BELGILARI

Kasallikning yashirin davri 2 soatdan 8–10 kungacha cho'ziladi. Ilk belgilari – qayd qilish, bosh og'rig'i, og'iz qurishi, ko'z xira ko'rishi, qovoq tushishi va yutinishda qiynalishdir. Asab tizimi shikastlanib, nafas olish yoki yurak urish reflekslarining buzilishi o'limga olib kelishi mumkin.



SAQLANISH CHORALARI

Uy sharoitida sabzavot va qo'ziqorin konservalarini tayyorlamang;

Belgilanmagan joylarda sotilayotgan konserva mahsulotlarini xarid qilmang;

Do'konda mahsulot yorlig'i, ishlab chiqaruvchi nomi va yaroqlik muddatiga e'tibor bering;

Bankaning qopqog'i ko'tarilgan yoki ichi xiralashgan bo'lsa, ochmang.

ESDA TUTING!

Uy sharoitida o'zboshimchilik bilan davolash og'ir oqibatlariga, hattoki o'limga sabab bo'ladi. Kasallik belgilari kuzatilsa, zudlik bilan shifoxonaga murojaat qiling!

Olimjon HAMROQULOV,

Bekobod shahar

Sanepidbo'limi epidemiolog-vrach yordamchisi.

KASALLIK DAVRI ISH STAJIGA KIRADIMI?

Xodim 5 oydan buyon mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lgan. Bu muddat mehnat stajiga qo'shiladimi?

K. Salimova.

Mehnat kodeksining “Har yilgi mehnat ta'tilini olish huquqini beradigan ish stajini hisoblab chiqarish” deb nomlangan 226-moddasida bu savolga javob berilgan.

Unda xodim haqiqatda ishlamagan, lekin mehnat to'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga, mehnat shartnomasiga muvofiq uning ish o'zni (lavozimi) saqlangan vaqt, shu jumladan har yilgi mehnat ta'ti-

li vaqti, dam olish kunlari, ishlamaydigan bayram kunlari hamda qonunchilikda belgilangan boshqa davrlari ish stajiga kirishi belgilangan. Ya'ni xodimning mehnatga layoqatsizlik davrida xodim bilan mehnat shartnomasi bekor bo'lmagan, uning ish joyi saqlangan shu sababli bu 5 oylik davri ish stajiga kiradi.

Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.

METALLURGLAR IJODIDAN

TEMIRNI OLOV ERITADI, ONGNI KITOB YORITADI

“O‘zmetkombinat”ning po‘lat eritish pechlari yonida yigirma yildan beri mehnat qilib kelayotgan Abdukarim aka temirni shunday mahorati bilan eritadiki, go‘yo olov uning itoatida edi. Hamkasblari uni hurmat bilan “mahoratli usta” deb atashadi.

Bir kuni kombinatga yangi muhandis – Zuhridin keldi. Yosh, zamonaviy fikrlaydigan va qo‘lidan kitob tushmaydigan yigit.

Bir kuni u Abdukarim aka bilan gaplashib qoldi:

– Abdukarim aka, agar biz po‘lat eritishda yangi ishlash usulini sinab ko‘rsak, energiya tejaladi, mahsulot ham sifatliroq bo‘ladi, – dedi u ishonch bilan.

Abdukaram aka yelka qisdi:

– Biz shunday qilib yigirma yil ishladik. Yangi usul foyda berarmikan?

Zuhridin jilmayib javob berdi:

– Kitoblardan o‘qib chiqdim, bu usul foydali



bo‘ladi. Temirni “pishirish”ni yaxshi bilasiz, aka, ammo ilmni ham “pishirish” kerak. Kitob – bu ham asbob, faqat qalb uchun.

Abdukaram aka kulib qo‘ydi:

– Bu zamonda ham kitob o‘qiydimi odam? Hamma narsa internetda-ku!

Shunda sex boshlig‘i orqadan yaqinlashdi. U shunday dedi:

– Savodli bo‘la turib kitob, gazeta, jurnal o‘qimagan kishining savodsizdan farqi yo‘q.

Bu so‘zlar Abdukarimning qalbiga singdi. U kechasi uyiga borgach, eski shkafning bir burchagida chang bosgan kitoblarni, gazeta, jurnallarni topdi. Ilgarigidek faqat temir haqida emas, inson fikri va rivojlanish haqida o‘qidi.

Keyinchalik u Zuhridin bilan birga yangi ish usulini joriy qildi. Natijada kombinatda energiya sarfi kamaydi, ish samarasi ortdi.

Endi u faqat mahoratli usta emas, balki ilmga chanqoq, fikrli inson sifatida tanildi.

– Biz temirni sayqallaymiz, – derdi u endi, – lekin kitob ongni sayqallar ekan. Temirni ishlovsiz qoldirsang zang bosadi, ongni kitobsiz, gazeta, jurnalsiz qoldirsang fikr so‘nadi.

Diyor ZULFIQOROV.

HAQIQATGA
AYLANGAN ORZU

Ravshan yillar davomida rassom bo‘lishni orzu qilardi. Har kuni rasm chizish bilan shug‘ullana, ammo uning asarlariga hech kim qiziqmasdi. Ko‘rgazmalarga ariza bersa, rad javoblari kelardi.

Bir kuni u charchadi. “Shuncha mehnatim behuda ekan”, – deb, rassomchilik bilan shug‘ullanishni bas qilmoqchi bo‘lib, mo‘yqalamlarini yig‘ishtirib, rang qutisini yopdi. Shu payt xonaga onasi kirib keldi va mehr bilan shunday dedi:

– Bolam, umidingni so‘ndirma. Go‘zal narsalar hech kutmagan oningda haqiqatga aylanadi.

Bu so‘zlar Jamshidning qalbiga kuch bag‘ishladi. U yana bir marta urinmoqchi bo‘ldi. Bu safar u qalbidan chiqqan, samimiy rasm – bolaligidagi qishlog‘ini, onasining mehr bilan qarab turgan chehrasini chizdi.

Oradan bir necha hafta o‘tgach, u rasmni ijtimoiy tarmoqqa joyladi. Kutilmaganda asar tez tarqaldi, minglab odamlar uni qo‘llab-quvvatladi. Rasm uning hayotini o‘zgartirdi u eng katta ko‘rgazmaga taklif qilindi. Ko‘rgazmada bu rasmni katta narxga sotib olmoqchi bo‘lgan xaridor ham chiqdi.

Jamshid onasiga tabassum bilan qarab shunday dedi:

– Ona, siz haq ekansiz... Go‘zal narsalar chindan ham kutilmagan paytda haqiqatga aylanar ekan.

Ibrat:

Umid – inson qalbining eng katta kuchi. U so‘nmasa, hatto eng uzoq orzular ham bir kuni yorqin haqiqatga aylanadi.

Ismat DIYOROV.

HIKMATLAR XAZINASIDAN

Qiyinchilik – bu sinov, shukr – bu kuch, niyat – bu maqsad, sabr – bu g‘alaba. Duo qiling, sabr qiling, yaxshi niyatni tashlab qo‘ymang!

Shams Tabriziy.

Bugun senga eng og‘irlik qilayotgan amal qaysi bo‘lsa, ertaga qiyomatda tarozuda eng og‘ir bosadigani ham o‘shadir.

Ibrohim ibn Adham.

Mol-dunyoga berilma, asalari ham asalni o‘zim uchun yig‘yapman deb o‘ylaydi.

Jaloliddin Rumi.

YAXSHILIK

Qoragina bir bolakay pisib keldida, yo‘l chetida turgan yangi mashinaning g‘ildiragining nafasini chiqara boshladi. Biroz muddatdan so‘ng, bolakay “ishi”ni epladi chog‘i, tirjayib bekat tomonga o‘tib ketdi.

Bu bir paytlar, tug‘ruqxonada shu bolakay bilan to‘lg‘oqdagi onasining hayotini saqlab qolgan shifokorning mashinasi edi...

Kamoliddin Shukur.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

O‘zbekiston metallurgiya zavodini kengaytirishga va tubdan ta‘mirlashga doir ulkan dasturni bajarish ishlari qaysi yili boshlangan?


1980-yilda Xalq iste‘moli molari ishlab chiqarish korxonasining mahsulot ishlab chiqarish quvvati necha tonna bo‘lgan?

1978-yil 17-avgustida Elektarda po‘lat eritish sexi ishga tushirilganda uning po‘lat eritish quvvati qancha bo‘lgan?

Bilasiz qarg‘alar qishda biron daraxt shoxlariga gala-gala qo‘nib tunashadi. Qishda qarg‘alar tunagan ayrim mo‘rtroq daraxtlar shoxlari, bahorga chiqib qurib qolish hollari kuzatiladi. Sovuq urib ketadi. Aytingchi, nima uchun bu shoxlar qurib qoladi?

Yer sharida qaysi eng baland tog‘ “dunyo tomi” degan ma‘noni bildiradi?

Ispan tilida “aylanuvchi” degan ma‘noni anglatuvchi shamol qanday nomlanadi?



Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o‘tgan sonidagi savollarning javoblari.

* O‘sha davrdagi O‘zbekiston rahbari Usmon Yusupovning o‘zi bo‘lg‘usi metallurglarga o‘qishlariga oq yo‘l tilab, kuzatib qo‘ydi.

* Farg‘onalik ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi Ne‘mat Inomov muhandis-metallurg ixtisosligiga ega bo‘lgan birinchi mahalliy millat vakili bo‘lgan.

* Kipriklar va ko‘z.

* Chayon.



MUASSIS:
O‘zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron variantda
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Ismoil UMATQULOV.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro‘yxatga olingan.